



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»**

**IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY**

**“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO‘PLAMI**

Urganch 2025-y



TASHKILY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b., professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmuratov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish” kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutliyev**

TASHKILY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish” kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura” kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

4. Establishment of the central areas of residential houses in the population paks senior teacher Beknazarov Murod Boynazarovich, students A`zamov J.G`., Boynazarov M.M. SamDAQU,

QULAY SHAHAR MUHITINI SHAKLLANTIRISH YONDASHUVLARINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI

Radjabov Xurshid Rashidovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Arxitektura” kafedrası o`qituvchisi

tel:+998(90) 558-61-04, e-mail: xurshid.radjabov@bk.ru

Annotatsiya

Maqolada qulay shahar muhitini shakllantirish yondashuvlarining paydo bo`lishi tarixiy evolyutsiyasi davrlar va hududlar kesimida tahlillar va ma`mulotlar ko`rib chiqilgan.

Аннотация

В статье рассматривается становление подходов к созданию комфортной городской среды, их историческая эволюция по периодам и регионам, даются анализ и отчеты.

Annotation

The article examines the development of approaches to creating a comfortable urban environment, their historical evolution by periods and regions, and provides analysis and reports.

Kalit so`zlar

Qulay shahar muhiti, agora, evolyutsiya, jamoat joylari.

Ключевые слова

Комфортная городская среда, agora, эволюция, общественные пространства.

Key words

Comfortable urban environment, agora, evolution, public spaces.

Insoniyatning yangilanish va o`zgarishlarga bo`lgan qiziqishi sababli insonlar jamiyati va ular hayot kechiradiga makon va muhit ham har bir davrda o`ziga xos va

mos bo'lganligi isbotini tarixdan ko'rishimiz mumkin. Eramizdan oldingi asrlarda yangilik va qulaylik tushunchalari mazmunan hozirgi davrdan ancha farq qilgan.

Qulay shahar muhitini yaratish yondashuvlari so'nggi asrlar davomida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy fanlar, urbanistika, arxitektura va ijtimoiy nazariyalar rivojlanishi bilan bog'liq. Ayni paytdagi "Barqaror shaharsozlik", "Aqilli shaharlar"da qulay shahar muhitining asosini tashlik etuvchi sensor texnologiyalari, ekologik yondashuv va inkluzivlik tushunchalari evalyusiyasini paydo bo'lish eramizdan oldingi asrlardan paydo bo'lish bosqichlarini ko'rib chiqamiz.(1-jadval)

1-jadval

Qulaylik tushunchasining evolyutsion rivojlanishi

Davr	Qulaylikka yondashuv	Asosiy xususiyatlar
Antik davr	Gigiyena, forumlar, suv	Agoralar, ommaviy hammomlar, soya salqin joylar.
O'rta asrlar	Xavfsizlik, din	Tor ko'chalar, ibodatxonalar atrofidagi maydonlar
XIX asr	Sanitariya, toza havo	Parklar, shamollatish, sanitariya islohotlari
Modernizm (XX a.)	Funksional zonalashtirish	Yashash, mehnat, transport va dam olishni ajratish
1970–2000-yillar	Inson markazidagi yondashuv	Mikroshkala, ko'cha hayoti, ijtimoiy faollik
XXI asr	Aqlli shaharlar, barqarorlik	Sensor texnologiyalari, ekologik yondashuv, inkluzivlik

Insonlar uchun qulay shahar muhiti tushunchalari ham bugun paydo bo'lmaganini quyidagi o'rganish va tahlillar natijasida ko'rishimiz mumkin.(2-jadval)

Antik davr va o'rta asrlar: jamoat makonlarining shakllanishi boshlanishi. Antik davrda (Afina, Rim) shaharlardagi qulay muhit agoralar, forumlar va ommaviy hammomlarga kirish imkoniyati orqali tushunilgan. Qulaylik tushunchasi gigiyena, soya, suv hamda uchrashuv joylarini o'z ichiga olgan. O'rta asrlarda esa shahar

rejalashtiruvini diniy va mudofaa talablariga asoslangan: ko‘chalar tor, maydonlar esa ibodatxonalar atrofida joylashgan bo‘lgan. [1]

“O‘rta asr davrida shahardagi qulaylik gigiyenik emas, balki ma’naviy va funksional tusga ega edi.” - Benevolo (1980)

2-jadval

Qulaylik tushunchasining evolyutsion rivojlanishi

Davr	Hudud	Shahar muhitidagi qulaylik xususiyatlari
Mil. avv. VIII– IV asrlar	Qadimgi Yunoniston (Afina, Milet)	Agoralar markaziy jamoat makonlari sifatida shakllandi. Ular savdo, yig‘ilishlar, suv manbalari va kolonnalardan tushadigan soyani o‘z ichiga olgan. Qulaylik polistik hayotda ishtirok va gigiyena orqali talqin qilingan (masalan, favvorachalar va soya). Agoralar markaziy jamoat makonlari bo‘lib, savdo, yig‘ilishlar, suv va soyani o‘z ichiga olgan. Qulaylik polistik hayotda ishtirok va gigiyenada ko‘rilgan.[2]
Mil. avv. I – mil. IV asrlar	Qadimgi Rim	Forumlar, termalar (ommaviy hammomlar), akveduklar va insulalar (ko‘p qavatli turar joylar) shakllandi. Qulaylik - toza suv, iliq binolar, jamoat infratuzilmasining mavjudligida edi. Rim shaharlari qat’iy rejalashtirilgan bo‘lib, asosiy ko‘chalar (cardo va decumanus), sanitariya va dam olish imkonini ta’minlagan.[3]
V–X asrlar	G‘arbiy Yevropa (Parij, Kyoln, Milan)	Shaharlarda mudofaa xarakteri ustuvor bo‘lgan: qal’a devorlari, tor ko‘chalar - bu hujumdan himoyalashga xizmat qilgan. Qulaylik ustuvor bo‘lmagan, sanitariya yomonlashgan. Maydonlar ibodatxonalar va qal’alar atrofida shakllangan.[4]
XI– XIII asrlar	Italiya, Fransiya,	Ibodatxonalar oldida maydonlar paydo bo‘lgan - odamlar to‘planadigan joylar sifatida. Bozorlar

	Angliya	markaziy cherkovlar atrofida joylashadi. Qulaylik - bu yerda ruhiy yaqinlik, xavfsizlik va diniy markaziylik orqali tushunilgan.[5]
XIV– XV asrlar	Ganza shaharlar, Shimoliy Italiya	Shahar kommunalari rivojlanadi, yangi boshqaruv inshootlari (ratushalar), favvoralar (masalan, Nyurnberg) quriladi. Qulaylik - bu boshqariladigan shahar makoni, gigiyena va yig'ilishlar uchun imkoniyatlar bilan bog'liq.

Shunday qilib, yuqoridagi rivojlanish bosqichlaridan o'tgan qulay shahar muhiti haqidagi qarashlarni bugungi kunda qulay shahar muhiti va uning jamoat joylarini shakllantirishning uchta asosiy yo'nalishini aniqlash mumkin:

1. Ko'p funktsionallik - piyodalar va jamoat joylari nafaqat tinch dam olish joylarini, balki o'yinlar, sport, pikniklar maydonchalari va hokazolarni ham o'z ichiga olishi kerak.

2. Iqlim qulayligini oshirish - bostirmalar, tentlar, shamoldan himoya qurilmalari, adiabatik sovutish elementlari (favvoralar, sun'iy hovuzlar, ko'llar va boshqalar) keng qo'llanilishi.

3. Hududlardan foydalanish tizimini osonlashtirish - ekologik toza va innovatsion yechimlardan foydalanish: biodrenaj kanallari, o'tkazuvchan qoplamalar, yomg'ir suvi drenaj tizimlari, yorug'likni aks ettiruvchi va qizib ketishning oldini oladigan yengil qoplamali yuzalar.

Qulay shahar muhitini yaratish zamonaviy shaharsozlikning bugungi kundagi eng dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy shaharlik inson butun shahar hududini jamoat maydoni sifatida qabul qiladi va undan xavfsizlik, qulaylik, funktsionallik va go'zallikni kutib yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Benevolo, L. The History of the City, MIT Press, 1980.

2. Wycherley, R. E. (1957). The Agora of Athens: The History, Shape and Uses of an Ancient City Center. American School of Classical Studies at Athens.
3. MacDonald, W. L. (1986). The Architecture of the Roman Empire: An Urban Appraisal. Yale University Press. [JSTOR; Yale]
4. Pirenne, H. (1925). Medieval Cities: Their Origins and the Revival of Trade. Princeton University Press. [JSTOR]
5. Morris, A. E. J. (1994). History of Urban Form: Before the Industrial Revolutions. Routledge. [Routledge]

ANTIK DAVR SHAHARLARIDA QULAY MUHIT TASHKIL ETUVCHI ASOSIY ELEMENTLAR

Radjabov Xurshid Rashidovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Arxitektura” kafedrası o`qituvchisi

tel:+998(90) 558-61-04, e-mail: xurshid.radjabov@bk.ru

Annotatsiya

Maqolada antik davr shaharlarida qulay muhit tashkil etuvchi asosiy elementlar davrlar va hududlar kesimida ko‘rib chiqilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются основные элементы, формировавшие комфортной среды в древних городах в разные периоды и регионы.

Annotation

The article examines the main elements that formed a comfortable environment in ancient cities in different periods and regions.

Kalit so‘zlar

Forumlar, termalar, akveduklar va sanitariya tizimlari, insulalar, shahardagi qulaylik haqida.

Ключевые слова

Форумы, бани, акведуки и санитарные системы, инсулы, о городском комфорте.